

Kulturdoula tug'ruq paytida sizga yordam beradi. U sizni tug'ruqdan oldin, tug'ish paytida va undan keyin qo'llab-quvvatlaydi va o'z ona tilingizda so'zlashadi. U o'zingizni xavfsiz his qilishingizga va shifoxona xodimlarini osonroq tushunishingizga yordam beradi. Doula sog'liqni saqlash tizimi qanday ishlashini biladi va buni sizga tushuntirishi mumkin. Doula qo'llab-quvvatlovchi shaxs bo'lib, sizga tibbiy maslahat bera olmaydi, lekin agar kerak bo'lsa, u sizga tibbiy sohada to'g'ri yordam olishingizga yordam beradi.

TUG'RUQDAN OLDIN: doula homiladorlik davrida siz va turmush o'rtog'ingiz bn yaqindan tanishadi va tug'ruq jarayonining qanday kechishini birgalikda rejalashtirasiz. Hamkorlik imkon qadar yaxshi bo'lishi uchun bo'lajak ota ham doula bilan uchrashishi muhimdir.

TO'LG'OQ VAQTIDA: Doula sizga tug'ish jarayoni yaqinlashganda Tug'ruqxona bilan bog'lanishingizga yordam beradi. To'lg'oq boshlanganda doulaga qo'ng'iroq qilishingiz juda muhim, shunda u tayyorgarlik ko'rishga ulguradi.



Doya to'lg'oq vaqti boshlanganini tasdiqlasa, doula tug'ruqxonaga, ya'ni eng kerakli vaqtda yordamga yetib keladi. Doula sizni tug'ruq paytida qo'llab-quvvatlaydi, shunda siz o'zingizni xavfsiz his qilasiz va nimalar sodir bo'layotganini hamda tibbiyot xodimlari nimalar so'zlayotganini tushunishingizga yordam beradi.

Doula ma'lumotlarni sir saqlaydi. O'rtangizdagi barcha gaplar maxfiylikicha qoladi.

TUG'RUQDAN KEYIN: Doula tug'ruq jarayonidan keyin ham Tug'ruqdan keyingi bo'limga yoki siznikiga tashrif buyuradi. Chaqaloq va tug'ruqdan keyingi vaqt bilan bog'liq savollarga javob olishingizga yordam beradi.

Siz uchun doula xizmatlari mutlaqo bepul, lekin agar siz doula yordamini bekor qilmoqchi bo'lsangiz, buni iloji boricha tezroq qilishingiz kerak, shunda doula boshqa ayolga yordam berishi mumkin. Ko'pchilik ayollar doula xizmatidan foydalanishni xohlashadi. Doyangizga yoki doulani o'ziga aytishingiz mumkin.

